O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim va ilm-fan vazirligi
Turkiy davlatlar tashkiloti
Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti (TURKSOY)
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Islom sivilizatsiyasi Markazi
Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondi
Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot instituti
Ozarbayjon Respublikasi Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot muzeyi
Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon madaniyat markazi
Boku davlat universiteti
Ganja davlat universiteti
Muhammad Fuzuliy nomidagi ilmiy tadqiqot markazi

“NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY IJODI – TURKIY DUNYO MA’NAVIY HAYOTIDA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferansiya materiallari

2026-yil 28-oktabr

ZEBO PRINTS
Toshkent – 2026

“Nizomiy Ganjaviy VA Alisher Navoiy ijodi – turkiy dunyo ma’naviy hayotida” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferansiya materiallari. Toshkent. 2026-yil 28-oktabr. “ZEBO PRINTS”, 2026. 436 bet.

Mas’ul muharrirlar:
Shuhrat SIROJIDDINOV,
filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Isa HABIBBEYLI,
akademik,
Ozarbayjon Milliy İlmlar Akademiyasi prezidenti
Nizomiy Ganjaviy nomidagi Adabiyot İnstituti bosh direktori

Tahrir hay’ati:
Nurboy Jabborov (O‘zbekiston), Rafael Huseynov (Ozarbayjon), Almaz Ulvi (Ozarbayjon), Teymur Kerimli (Ozarbayjon), Nozliya Normurodova (O‘zbekiston), Qo‘ldosh Pardayev(O‘zbekiston), Iqboloy Adizova (O‘zbekiston), Dilnavoz Yusupova (O‘zbekiston), Alimuxtar Muhtarov (Ozarbayjon), Yashar Qosimov (Ozarbayjon), Karomat Mullaxo‘jayeva (O‘zbekiston), Gulbahor Ashurova (O‘zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O‘zbekiston), Boymuratova Nargiza (O‘zbekiston).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2025-yil 7-oktabrda Ozarbayjon Respublikasi Gabala shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy Davlatlar tashkiloti Sammitidagi nutqida 2026-yili buyuk shoir va mutafakkir hamda ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavalludining 885 yilligi hamda Alisher Navoiyning 585 yilligini keng nishonlash va ana shu mumtoz siymolarning insonparvarlik, o‘zaro do‘stlik va birdamlik haqidagi g‘oyalari, bebaho adabiy merosini keng targ‘ib etish maqsadida “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi – turkiy dunyo ma’naviy hayotida” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazilishi belgilangan edi. Ushbu to‘plamda “Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi – turkiy dunyo ma’naviy hayotida” mavzusidagi ilmiy maqolalar jamlangan. Kitob filolog mutaxassislar, tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

© “Zebo prints”, 2026

1. **Izbullayeva, G. V.** Markaziy Osiyoda XII asr oxiri – XIV asrning birinchi yarmida pedagogik fikrlar rivoji (didaktik asarlar misolida) [Matn] : monografiya / G. V. Izbullayeva. – Buxoro : Durdona, 2022. – 216 b.

2. **Sultanov, R.** Sədi yaradıcılığında "Gülüstan" [Mətn] / R. Sultanov. – Bakı : Azərnəşr, 1961. – 184 s.

3. **Sultanov, R.** Fars dili tədrisinin metodikası [Mətn] / R. Sultanov ; Azərb. SSR Ali və Orta İxtisas Təhsili Nazirliyi, S. M. Kirov ad. ADU. – Bakı : ADU nəşriyyatı, 1973. – 142 s.

4. **Sultanov, R.** Nizami əsərləri dili lüğətinin tərtib prinsipləri [Mətn] / R. Sultanov. – Bakı : Elm, 1982. – 96 s.

5. **Tusi, Nəsirəddin.** Əxlaqi-Nasiri [Mətn] / N. Tusi ; fars dilindən tərcümə edən, muqəddimə və şərh. müəl. R. Sultanov. – Bakı : Bakı Kitab Klubu, 1989. – 256 s.

6. **Tusiy, Nosiriddin.** Axloqi Nosiriy [Matn] / N. Tusiy ; ozarbayjoncha nashridan o'zbek tiliga tarjima va izohlar muallifi G. V. Izbullayeva. – Buxoro : Durdona, 2022. – 280 b.

ALISHER NAVOIYNING "SAB'AI SAYYOR" DOSTONIDA QO'LLANGAN ZOONIMLARNING SEMANTIK TAHLILI (UY HAYVONLARI MISOLIDA)

Xo'janiyazova Shahnoza Satimboyevna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
shahnozaxon8686@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonida qo'llangan xonaki hayvonlar leksik-semantik, tarixiy-etimologik jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, o'z va ko'chma ma'noda qo'llangan leksik birliklar, sinonim so'zlar ashyoviy materiallar misolida ochiqlangan.

Kalit so'zlar: *hayvonot olami, diaxron aspekt, rakib, raxš, sag, it, markab, náqa.*

Abstract. This article provides a lexico-semantic and historical-etymological analysis of domestic animal names utilized in Alisher Navoiy's epic poem "Sab'ai Sayyor" (The Seven Planets). Furthermore, lexical units used in literal and figurative senses, as well as synonymous words, are elucidated through the analysis of textual materials and textual evidence.

Keywords: *fauna,* ***diachronic aspect****, rakib, raxš, sag, it, markab, náqa.*

Turkiy xalqlarda zoologik terminlarni lingvistik nuqtai nazardan tadqiq etish o'tmishga borib taqaladi. Dastavval, Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk"

asarida 400ga yaqin zoonimlar, yuzga yaqin qush nomlari izohlangan[16]. Avvalo, olam insoniyat olami, hayvonot olami, nabotot olami singari o‘zaro munosabatda bo‘lgan kichik olamlar butunligidan iborat. Insoniyat olami hayvonot olami bilan “jonzotlik”, “jonivorlik” belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil qilsa, “nutqiy faoliyat” belgisi asosida bir-biridan farqlanadi, ya’ni insoniyatda mavjud bo‘lgan bu belgi hayvonlarga xos emas[17]. Hayvonlar ham tirik mavjudotlar sistemasini tashkil etadi. Ma’lumki, fanda hayvonot olami sodda tuzilmali hayvonlardan murakkab, tuzilishi nuqtai nazaridan insonga yaqin bo‘lgan hayvonlargacha ajratiladi[18]. Shuni ta’kidlash mumkinki, qadim zamonlardan boshlab turkiy xalqlar uchun chorvachilik hayot kechirishning asosiy manbalaridan biri bo‘lib xizmat qilgan. Chorvachilikning katta hayotiy ahamiyati va uni yuritish, shuningdek, hayvonlarni qurshab tutish, qo‘lga o‘rgatilgan yirtqich qushlar bilan ov qilish kabi ovchilikning ko‘rinishlari boy terminologiyaning shakllanishiga sabab bo‘lgan[19]. Kezi kelganda aytish mumkinki, eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llangan zoonimlarning asosiy qismini qadimgi turkiy tilda faol ishlatilgan nomlar tashkil etadi[20].

Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida keltirilgan o‘z va o‘zlashgan qatlamga oid xonaki uy hayvonlarini diaxron aspekt jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiq. Asar so‘z boyligida bunday leksik birliklar talaygina: *tevä, ot, rakib, raxš, samand, hayván, sag, it, markab, náqa, qoy, qozi, xačir* va h.k.;

Ilm ahliga ma’lumki, *tuya* sutemizuvchilar sinfiga mansub bo‘lib, quruqlikda yashovchi, asosan o‘t-o‘lan hamda cho‘l sharoitida o‘sadigan tikanli o‘simliklar bilan oziqlanuvchi bir o‘rkachli va ikki o‘rkachli zoonimdir. Uning **go‘shti va suti halol** sanalanib, o‘tmishda insonlar turli xil yeguliklar tayyorlab iste’mol qilishgan hamda yungidan kiyik-kechaklar tikishgan.

“Bir yoki ikki o‘rkachli, juft tuyoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sutemizuvchi ish hayvoni” ma’nosidagi *tuya* zoonimi (O‘TIL, V, 463) “Devonu lug‘otiti turk”da *tevä, teväy, tevi, devä* kabi leksik variantlarda ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, turklar tuyani kasra bilan *təwi,* o‘g‘uz, chigil, yag‘mo, tuxsi qabilalari esa *təwə* shaklida qo‘llashgan (III, 153). H.Dadaboyevning ta’kidlashicha, “Devon”da *teväy* fonetik varianti qaysi dialektga mansubligi haqida ma’lumot berilmagan[21]. DTSda zoonimning *tebä* tarzida

[16] Базарова Д.Х. История формирования развития зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан,1978. – С.3.
[17] Нишонова Н. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б 8-9.
[18] Дубовский Г.К., Умматов А. Зоологиядан ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –248 б.
[19]Abdushukurov B., L.Sindarov. Oltin bitiglar. – Toshkent, 2019. №1. – B. 68.
[20]Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.22.
[21] Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент, 2017. – Б.57.

qo‘llanganini quyidagi misol yordami dalillash mumkin: *Tebä siŋärü barmïš ürüŋ iŋäni botulamïš – "U o‘z tuyalari oldiga bordi, uning oq tuyasi (urg‘ochi tuyasi) bo‘taloq tug‘di"* (546), V.Radlov lug‘atida *täbä* (RSL, III, 1118), "Abuška lūgati veya Čaĝatay sözlügü" lug‘atida *tive* (194), eski o‘zbek adabiy tilida *tevä* shakllari ishlatilgani qayd etilgan (ANATIL, III, 219). Doston matnida bir o‘rinda tubandagicha qo‘llangan:

*Xačir-u **tevä** barčasï zebá,*
Barčanïŋ raxtï atlas-u debá (417).

Shuningdek, "urg‘ochi tuya" semasini ifodalovchi arabcha *náqa* zoonimi ham asar so‘z boyligida o‘z ifodasini topgan:

Ki, köründi közügä bir mahmil,
***Náqasï** šahr sarï musta'jil (402).*

"Qo‘riqlash uchun, ov qilish uchun saqlanadigan uy hayvoni" ma'nosidagi *it* zoonimi qadimgi turkiy tilda "nariga surilmoq" ma'nosini anglatgan hamda *iyt* shaklida ishlatilgan. O‘sha davrdayoq *y* undoshi talaffuz qilinmay qo‘ygan, shuning hisobiga *i* unlisi cho‘ziq aytilgan, keyinroq bu cho‘ziqlik ham yo‘qolgan: *iyt>i:t>it* (DTS, 215, 221; ESTYa, I, 386, O‘TEL, I, 126). Mahmud Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida "it, kuchuk" (DLT, I, 71), eski o‘zbek adabiy tilida "it, kuchuk; yor iti" ma'nolarida qo‘llangan (ANATIL, II, 59). Mazkur leksema hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma'no kengayishga uchrab, birlamchi va ko‘chma ma'nolarda ishlatilmoqda: 1) "uy-ro‘zg‘orni qo‘riqlash, ov ovlash va shu kabi maqsadlar uchun saqlanadigan to‘rt oyoqli sutemizuvchi uy hayvoni"; 2) "shu hayvonga nisbatlanuvchi haqoratni bildiradi"; 3) *ko‘chma.* "Birovning manfaatlarini himoya qilib, boshqalarga zulm o‘tkazuvchi odam; malay"; 4) "Muchal yil hisobida o‘n birinchi yil nomi" (O‘TIL, II, 564). Asar so‘z boyligida to‘rt o‘rinda quyidagi ma'nolarda qo‘llangan:

***Itlär** allïya tašlaban lášin,*
Qoyuban küngira üzä basin (471).

Yuqorida keltirilgan baytda adib *it* leksemasini o‘z ma'nosida ya'ni, "qonga belangan tanasini itga tashlagan holda, boshini qasr kungirasiga ilib qo‘yganligini" tasvirlaydi.

Asru mašhurdurur bu sözdä bali:
***"It urar, karván kečar**"masala (634).*

Ikkinchi misradagi *it* zoonimi majoziy ma'noda ya'ni "mashhur kishilar ortidan qilinadigan hasad, g‘iybatlarning ramziy denotatidir. Adib ushbu paremiya orqali har bir shaxs oldiga qo‘ygan maqsadiga erishish asnosida to‘siq hamda kichik adovatlarga chalg‘imasligi haqida uqtiradi.

Darhaqiqat, "Farhod va Shirin" dostonidan olingan quyidagi parchada "Itning hurishi bilan karvon yonmas"ligi ham ta'kidlangan:

Yïlan netgay ürib niš ajdaháni,
It urmak bilän yanmas karváni (268).

Qadimgi turkiy tilda *qoy* zoonimi *qoj* (DTS, 453), *qoy, qon* (Devon, III, 154), shakllarida ishlatilgan. Mazkur leksema "Kultegin" yodgorligi va "Devonu lug'otit turk"da o'n ikki muchal yillaridan sakkizinchisi – qo'y yili ekanligini haqida qaydlangan (DTS, 453; DLT, I, 183). DTSda *qoyun, qoyын* tarzida ham kerltirilgan (453). Mahmud Koshg'ariy mazkur leksema *qon* shakli *y* undoshining *n* undoshi bilan almashinuvi natijasida yuzaga kelganini hamda ayni shaklning arg'ular so'zi ekanligiga diqqat qaratadi (Devon, III, 154). Bu so'zning *qoč, qoy* shakllari farqlanib, *qoy* shakli "sovliq" *qoč* shakli esa "qo'chqor" ma'nosini anglata boshlagan (Devon, I, 311; O'TEL, I, 583). Hozirgi kunda turkiy tillarda *koç* so'zi 1) "qo'y"; 2) "hamal burji"ni ifodalagan (TRSL, 554). Dostonda "go'sht, jun, sut va mo'yna olish uchun boqiladigan, juft tuyoqli sutemizuvchi uy hayvoni" semasida qo'llanilib,"cho'ponning qo'ylar to'dasiga mehribonlik ko'rsatgani" ifodalangan:

Čun ülüγraq bolub šubánlïγ etib,
***Qoy** guruhïγa mehribánlïγ etib (286).*

"Qo'yning yoshiga yetmagan, to'rt-besh oylik bolasi; umuman, qo'yning bolasi" (O'TIL, IV, 352) ma'nosidagi *qozi* zoonimi qadimgi turkiy tilda hamda eski o'zbek adabiy tilda ham "qo'zi, qo'zichoq" semasida qo'llangan (DLT, III, 243; ANATIL, IV, 86). Quyida berilgan baytda adib "qo'y-qo'zilarga jondan ortiq mehr ko'rguzganingda, (Muso) payg'ambar ham ojiz qolishini" ta'kidlaydi:

***Qozïγa** mehr korgüzüb jándin*
Kim, nabiyγa güzir emas andïn (286).

"Yakkatuyoqlilarga mansub o'txo'r, sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni" (OTIL, III, 540) vazifasini bajaruvchi *at* zoonimi "PDP", "DLT" lug'atlarida ayni shu ma'noda ifodalangan (PDP, 361; DLT, I, 70). "Sab'ai sayyor"da *at* leksemasining sinonimi forscha-tojikcha *raxš* "yugurik ot, tulpor", *samand* "rangi sariq, yol-quyrug'i qora ot; chiroyli ot, tulpor, arg'umoq", arabcha *rakib* "miniladigan ot, ulov", *markab* "ulov; ot, tuya, eshak kabi miniladigan hayvon" istilohlari yordamida ifodalangan:

***At** ayaγï anï xaláb etsa,*
Yuqarïdïn yaγïn daγï yetsa (609),

Sayr aylar edi gahu begáh,
*Sürüban **markabin** rahu beráh (408).*

*Ul musáfiri bavádiypaymá, balki ul **rákibi** samávátpaymá me'ráji kečasiniγ ta'rifikim, **buráqï** barqgámlïq va payki **buráq** xirámlïq qïldï va ul **raxš** bilä payk xayál yetmas yergača čapti va ul čapmaq bilä hakimi xirad fahmi bavar etmas nimälär tapti (288).*

Mazkur parchaning mazmun-mohiyatini quyidagicha izohlash mumkin: U vodiylarni kezib chiqqan musofir, balki u osmonlar bo‘ylab parvoz qilgan chavandoz (ya’ni Muhammad s.a.v.) Me’roj kechasini shunday ta’rif qildiki, uning chaqmoq tezligidagi ulovi (Buroq), tez yurar chopari shunday yo‘l bosdiki, o‘sha tezkor ulov bilan inson tasavvuri yetmagan yuksakliklargacha chopdi hamda safar davomida faylasufning aqlbovar qilmaydigan mo‘jizalar va haqiqat guvohi bo‘ldi.

Ushbu parchada adib mubolag‘a va tashbeh san‘atlaridan mahorat bilan foydalangan. Muallif bu o‘rinda Payg‘ambar (s.a.v.)ni nafaqat bu dunyo vodiylarini kezgan musofir, balki samoviy fazolarni o‘lchagan muazzam chavandoz sifatida ham ta‘riflaydi. Uning chaqmoqday ulovi ya’ni Buroqning mislsiz tezligi va inson tafakkuri yetmas hududlarga qilgan parvozi tasvirlangan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida hayvonlar olami tasvirining lisoniy xususiyatlarini o‘rganish adibning badiiy mahorat ko‘lamini yangi qirralarini ochib beradi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, asarda jonivorlar tabiati va inson-hayvon munosabatlarini yoritishda mubolag‘a hamda tashbeh san’atlari shunchaki tasvir vositasi emas, balki qahramonlarning ichki kechinmalari, voqealar rivojini kuchaytiruvchi muhim konseptual elementlar bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, matnda hayvonlar obrazi bilan bog‘liq paremiologik birliklarning mahorat bilan qo‘llanishi dostonning xalqchil til xususiyatlarini ko‘rsatish bilan birga, asarning didaktik hamda falsafiy salmog‘ini oshirgan.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Alisher Navoiy. Sab’ai sayyor. X jildlik, VII jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. –B. 275-664.
2. Абдушукуров Б.Б. XI-XIV аср туркий ёзма манбалар тилидаги зоонимлар. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б.22.
3. Abdushukurov B., L.Sindarov. Oltin bitiglar. –Toshkent, 2019. №1. –B. 68.
4. Базарова Д.Х. История формирования развития зоологической терминологии узбекского языка. – Ташкент: Фан,1978. – С.3.
5. Дадабоев Ҳ. “Девону луғотит турк”нинг тил хусусиятлари. – Тошкент, 2017. – Б.57.
6. Дубовский Г.К., Умматов А. Зоологиядан ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. –248 б.
7. Нишонова Н. Ўзбек тилида “ҳайвон” архисемали лексемалар майдонининг мазмуний таҳлили. Филол. фан. номз. … дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – Б 8-9.
8. Xo‘janiyazova Sh. Alisher Navoiyning manoqib asarlari leksikasi. Filol. fan. bo‘yicha falsafa dok (PhD). ... – Toshkent, 2022. – 155 b.

Shartli qisqartmalar

ANAL – Фозилов Э. Алишер Навоий асарлари луғати. –Тошкент, I. 2013. – 2006 б.

ANATIL – Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, I-IV. 1983-1985; I-1983, 646 б.; II -983, 642 б.; III -1984, 622 б.; IV- 1985, 636.

ARS – Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. –М: Русский язык, 1976. – 595.

DLT – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. I-III. – Тошкент: Фан, 1960-1963. Т. I. 1960. – 499 б.; Т. II. 1961. – 427 б.; Т. III. 1963. – 461 б.

NAL – Шамсиев П., Иброҳимов С. Навоий асарлари луғати. –Тошкент, 1972. – 782 б.

NTL – Юсуф Б. Навоий тили луғати. Т. I. –Тошкент, 2018. – 493.

S.S – Alisher Navoiy X jildlik, VII jild. Sab'ai sayyor. –Toshkent, 2013.

TjRS – Таджикско-русский словарь. –М.: Государственное издателство иностаранных и насинальный словарей, 1954. -789.

O'TIL – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I-V. –Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006-2008. Т. I. 2006. - 679 б.; Т. II. 2006. - 671 б.; Т. III. 2007. - 687 б.; T.IV. 2008. - 608 б.; T.V. 2008. -591 б.

O'TEL – Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). –Тошкент: Университет, 2000. -599 б.; Ўзбек тилиниг этимологик луғати (арабча бирликлар ва уларнинг ҳосилалари). –Тошкент: Университет, 2000. -599 б.; Ўзбек тилиниг этимологик луғати (форс-тожикча бирликлар ва уларнинг ҳосилалари). –Тошкент: Университет, 2009. -282 б.;

ESTYa – Севортян Э. Этимологический словарь тюркских языков. Общетюркские и межтюркские основы на гласные. –М: Наука, 1974. – 767 с.

LINGUISTIC AND POETIC INTERPRETATION OF HOMONYMY AND POLYSEMY IN ALISHER NAVOI'S GHAZALS

Tilakova Nargiza,
Alisher Navo'i Tashkent State
University of Uzbek Language and Literature

Abstract. The linguistic and poetic perfection of Alisher Navoi's ghazals is largely determined by the richness of their lexical and semantic resources. Among these resources, homonymy and polysemy occupy a significant position. These phenomena not only demonstrate the semantic potential of the language but also function as important poetic devices that create multilayered meanings, imagery, and aesthetic effects. This article examines the linguistic and poetic characteristics of homonymy and polysemy in Alisher Navoi's ghazals. Particular attention is paid to

o‘rni	
Xəyalə HÜSEYNOVA. Əlişir Nəvai ilə Azərbaycan ədəbiyyatı arasında mədəni və poetik inteqrasiy	**343**
Shermuhammad AMONOV. Fuzuliyga izdoshlik	**347**
Kamola SIROJIDDINOVA. O‘zbek askiyasi va ozarbayjon xalq og‘zaki ijodidagi mutoyiba janrlarining qiyosiy-uslubiy tahlili	**354**
Senichoy YOQUBOVA. Nizomiy va Navoiy dostonlaridagi Xisrav obrazining qiyosiy tahlili	**358**
Ehsanullah QUVANCH. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy “Xamsa”lari hamda “Boburnoma”ning o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi o‘rni	**363**
V SHO‘BA. O‘ZBEK VA OZARBAYJON ADABIYOTI: TIL, USLUB VA TARJIMA MUAMMOLARI	**369**
Farhad RAHİMİ. Muhammed Mehdi Tebrizî’nin Fevaid-i Ahmedî (Kavaid-i Türkî - Lügât - Temsilat) Adlı Eseri ve Tanık Olarak Kullanılan Diller Üzerine	**369**
Gulchehra IZBULLAYEVA. Pedagogik tadqiqotlarda o‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalarining takomil bosqichlari	**395**
Shahnoza XO‘JANIYAZOVA. Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonida qo‘llangan zoonimlarning semantik tahlili (uy hayvonlari misolida)	**403**
Nargiza TILAKOVA. Navoiy lirikasidagi köp ma'noli sözlarni ingliz tiliga tarjima qilish masalalari	**408**
Madina VAHOBOVA. MNIZOMIY VA NAVOIY DOSTONLARIDA SHOH VA GADO OBRAZLARI TASVIRI (“Haft paykar” va “Sab’ai sayyor” misolida)	**416**
Zebiniso BEKMURADOVA. NAVOIY LIRIKASIDAGI XIAZMLARNING LINGVISTIK TADQIQI	**426**

ILMIY-OMMABOP NASHR

“NIZOMIY GANJAVIY VA ALISHER NAVOIY IJODI – TURKIY DUNYO MA’NAVIY HAYOTIDA”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferansiya materiallari

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari mualliflarning tahririda taqdim etilgan.
Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarida keltirilgan faktlar, atoqli otlar va boshqa ma’lumotlarning aniqligiga hamda imloviy xatolar uchun javobgarlik mualliflarning zimmasidadir

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: D. Toshboltayev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.
Bosishga ruxsat etildi 13.10.2026 y.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times new roman” garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 27,5.
Adadi 100 dona. Buyurtma № 17.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.
+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01